O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori M.E.Po'latov

_______________

Ro'yxatga olindi: № FD-14-16
2024 yil "29" 08

# "XALQARO BANK VA MOLIYA"
fanining
## O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Biznes va boshqaruv

**Ta'lim yo'nalishi:** 60410500 – Bank ishi va auditi

Samarqand – 2024

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul kodi | | O'quv yil 2024-2025 | Semestr 7 | ECTS - Kreditlar 6 |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 6 |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Xalqaro bank va moliya | 90 | 90 | 180 |

2

**I. Fanning mazmuni**

Fanning maqsadi – talabalarni xalqaro bank va moliyani tushunchasi hamda ushbu xalqaro moliyaviy tashkilotlarga oid barcha nazariy va amaliy tajribalarni o'rganish, talabalarni tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa xalqaro banklar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatlarning o'sib borishi sharoitida xalqaro bank va moliya munosabatlarini tashkil etish asoslari va tamoyillarini bilishdan iborat.

Fanning vazifasi – xalqaro bank va moliya munosabatlari tashkil etish asoslari va tamoyillarini, xalqaro moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda nazorat va tartibga solish borasidagi mezon va me'yorlarni, xalqaro bank va moliya munosabatlarni shakllantirish mexanizmidan foydalanishni va xalqaro moliyaviy munosabatlar bilan bog'liq masalalarni tahlil etishni o'rgatishdan iborat.

3

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu. "Xalqaro bank va moliya" faniga kirish**

"Xalqaro bank va moliya" faniga kirish. "Xalqaro bank va moliya" fanining maqsadi, vazifalari va o'rganish uslublari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqligi. "Valyuta munosabatlari" tushunchasining mazmuni va ularning yuzaga kelishining ob'ektiv sabablari.

**2-Mavzu. Valyuta munosabati va valyuta tizimi**

Valyuta tizimi va uning asosiy turlari. Milliy valyuta tizimi va uning asosiy elementlari. Mintaqaviy valyuta tizimi va uning elementlari. Jahon valyuta tizimining mohiyati, uning asosiy elementlari. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimini rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi valyuta tizimi. O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi.

**3-Mavzu. Jahon valyuta tizimi evolyusiyasi**

Valyuta tizimini rivojlanish tarixi. Parij konferentsiyasi va unda e'lon qilingan valyuta standarti. Genuya valyuta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Oltin standarti inqirozi, uning xususiyatlari va oqibatlari. Genuya valyuta tizimining standarti, o'ziga xosligi, xususiyatlari va kamchiliklari. Oltin-deviz standartining inqirozi, davomiyligi, sabab va oqibatlari. Bretton-Vuds valyuta tizimining paydo bo'lishi, xususiyatlari. Bretton-Vuds valyuta tizimidagi yangiliklar va ularni jahon valyuta tizimidagi ahamiyati. YAmayka valyuta tizimi va uning standarti. Oltin "demonetizatsiyasi"ning jahon valyuta tizimi uchun ahamiyati. Zamonaviy valyuta tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

**4-Mavzu. Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar**

Valyuta kursining mazmuni va ahamiyati. Valyuta kursining asosiy turlari. Valyuta kursining kotirovkasi va uning turlari . Valyuta pariteti va uning ahamiyati. Valyuta kursi o'zgarishining jahon valyuta bozorlaridagi operatsiyalarga ta'siri. Valyuta kursining rejimlari. Valyuta kursini o'rnatilishi.Kross-kurs, uni hisoblanishi va ahamiyati. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash yo'llari.

**5-Mavzu. Valyuta bozori va valyuta operatsiyalari**

Valyuta bozori mazmuni, asosiy turlari. Valyuta bozorining tarkibiy tuzilishi. Valyuta bozori ishtirokchilari va ularning faoliyati. Birja va birjadan tashqari valyuta bozori. Valyuta birjalari va ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari. Valyuta pozitsiyasi va uning turlari. Valyuta pozitsiyasini boshqarish. "Valyuta operatsiyalari" tushunchasining mohiyati va uni amalga oshirishning asoslari. Valyuta operatsiyalarining asosiy turlari. Spot operatsiyalari ularni o'tkazish tartibi, xususiyatlari. Forvard va fyuchers operatsiyalari, ularning xususiyatlari va amalga oshirish tartibi. Svop operatsiyalari, ularning mohiyati va amalga oshirilishi. Risklarni xedjerlashda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish. Valyuta operatsiyalari va valyuta arbitrajlari, ularni o'tkazish tartibi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta bozorini tartibga solish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

**6-Mavzu. Valyuta siyosati**

Valyuta siyosati tushunchasining mazmuni va asosiy turlari. Valyuta siyosatining asosiy shakllari. Markaziy bank valyuta siyosatining maqsadi va asosiy vazifalari. Markaziy bankning xalqaro operatsiyalari. Diskont valyuta siyosati. Deviz valyuta siyosati. Valyuta intervensiyasi va undan foydalanish. Tozalangan valyuta intervensiyasi. Devalvatsiya va uning qo'llanilishi. Revalvatsiya, uning maqsadi va qo'llanilishi. Valyuta zaxiralarini boshqarish va ularni diversifikatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosatidagi o'ziga xosliklari valyutaviy cheklovlarni qo'llash. Valyutaviy cheklov'larning maqsadi va ularni yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida valyuta siyosatining o'ziga xos jihatlari.

**7-Mavzu. Evropa valyuta tizimi**

Evropada iqtisodiy integratsiya shakllanish bosqichlari. Evropada integratsion jarayonlarning tarixi. Evropa valyuta ittifoqining rivojlanishi. Evropada yagona valyuta ittifoqining shakllanish bosqichlari. Evroni muomalaga kiritilishi bosqichlari. Evropa Markaziy bankining monetar va valyuta siyosati. 1990-yillardagi Evropa valyuta tizimining inqirozi. "valyutaviy mexanizm"ga ta'siri. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Evropa valyuta ittifoqining asosiy ye'nalishlari.

**8-Mavzu. Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari**

Xalqaro hisob-kitoblar mazmuni, amalga oshirish asoslari va tarkiblarishi. Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllari. Xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladigan xujjatlar va ularning turlari. Xalqaro hisob – kitoblarda amaldagi qoidalardan foydalanish. Xalqaro hisob-kitoblarda veksel va cheklardan foydalanish. Xalqaro xujjatlashtirilgan inkasso va u bo'yicha hisob-kitoblar. Xalqaro xujjatlashtirilgan akkreditiv va u bo'yicha hisob-kitoblar. O'zbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitoblarning shakllari va ularni rivojlantirish masalalari. Xalqaro hisob-kitoblar shakllarining alohida olingan mamlakatlar uchun ijobiy va salbiy tomonlari va ularni mamlakat xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'llash imkoniyatlari.

**9-Mavzu. To'lov va hisob-kitob balanslari**

To'lov balansining mazmuni va tarkibi. To'lov balansini tuzishga qo'yiladigan talablar. To'lov balansini tuzish konsepsiyalari. To'lov balansini tuzilishi. Tashqi savdo balansi va uning tuzilishi. To'lov balansining defitsiti va uni qoplash usullari. To'lov balansining aktiv qoldig'ini ta'minlash yo'llari. To'lov balansi holatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Hisob-kitob balansi va uning to'lov balansidan farqi. Rivojlangan davlatlarning to'lov balansi. Rivojlanayotgan davlatlar to'lov balansining o'ziga hos jihatlari. Moliyaviy inqiroz sharoitida to'lov balansini tartibga solishning o'ziga xos yo'nalishlari.

**10-Mavzu. Xalqaro kredit**

Xalqaro kredit tushunchasining mazmuni. Xalqaro kreditning asosiy shartlari. Evroobligatsiyalar bozori va uning xususiyatlari. Xalqaro kreditning asosiy shakllari. Firma krediti, bank krediti, aksept-rambursh kreditlar. Xalqaro kreditlar bo'yicha ta'minotlar va ularning turlari. Kichik biznesni rivojlantirishda xalqaro kreditlarni tutgan roli. Xalqaro kredit liniyalari hisobiga moliyalashtirish mexanizmi. Tashqi savdoni kreditlashda bank kreditlarining roli. Tashqi savdoni kreditlashning asosiy shakllari. Mijozning kredit to'loviga layoqatliligini baholash. Xalqaro faktoring va forfeyting operatsiyalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari. Eksportni kreditlash va uning ahamiyati. Importni kreditlash. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kredit intrumentlaridan foydalanish.

**11-Mavzu. Valyuta inqirozlari**

Valyutaviy inqirozlar tushunchasining mazmuni. Valyutaviy inqirozlarning asosiy shakllari. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi: yuzaga kelish sabablari, bosqichlari va xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri. 1960-80-yillardagi valyutaviy inqirozlar va ularning yuzaga kelish sabablari. Valyutaviy inqirozlarning jahon iqtisodiyotiga ta'siri. Evropa valyuta tizimi valyuta inqirozi: sabablari va oqibatlari. 1990-yillarda Janubiy-sharqiy Osiyo inqirozi va uning xulosalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining valyuta tizimiga ta'siri. Zamonaviy valyuta inqirozlarining qaytarilishi va xususiyatlari.

**12-Mavzu. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari**

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining tasniflanishi va umumiy tavsifi. Tashkilotlarni tuzishdan maqsad, ularning roli va ahamiyati. Xalqaro Valyuta Fondi, uning tuzilishi, roli va funksiyalari. XVFning tarkibiy tuzilishi, resurslarining shakllanishi va taqsimlanishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro valyuta tashkilotlarining roli. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqishda xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining resurslaridan foydalanish. O'zbekistonni XVF bilan aloqalari. Jahon Banki guruhi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar. XTTBning xalqaro faoliyatining yo'nalishlari. O'zbekistonni JB guruhi bilan hamkorligi. Mintaqaviy xalqaro moliya tashkilotlari. O'zbekistonni xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashgulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Valyuta munosabati va valyuta tizimi.
2. Jahon valyuta tizimi evolyusiyasi.
3. Yevropa valyuta tizimi.
4. Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar.
5. Valyuta bozori va valyuta operatsiyalari.
6. Valyuta siyosati.
7. Xalqaro hisob-kitoblar va ularning shakllari.
8. Xalqaro kredit.
9. To'lov va hisob-kitob balanslari.
10. Valyuta inqirozlari.
11. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

*Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mavzulari.*

1. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida valyuta munosabatlari va valyuta tizimi, ularning rivojlanish bosqichlari.
2. To'lov balansi va uni balanslashtirish usullari, nazariyalar va ularning zamonaviy ko'rinishlari.
3. Markaziy bankning valyuta operatsiyalari va valyuta pozitsiyasi
4. Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar.
5. Milliy valyuta konvertatsiyasi va uni barqarorlashtirish usullari.
6. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.
7. Banklarning banklararo vakillik munosabatlari.
8. Tijorat banklarining spot operatsiyalari.
9. Tijorat banklarining muddatli valyuta operatsiyalari.
10. Tijorat banklarining svop operatsiyalari.
11. Markaziy bankning valyuta intervensiyasi.
12. Markaziy bankning valyutaviy svop operatsiyasi.

13. Markaziy bankning Gold Swap operatsiyasi.
14. Valyuta riskini baholash usullari.
15. Valyuta riskini boshqarish usullari.
16. Valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish.
17. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalari va ularni qisqartirish yo'llari.
18. Xalqaro valyuta operatsiyalarini tartibga solish.
19. Xalqaro valyuta operatsiyalarini nazorat qilish.
20. Xalqaro hisob- kitoblarnin normativ-me'yoriy asoslari.
21. Xalqaro hisob - kitoblarining tashkiliy asoslari.
22. Xalqaro hisob - kitoblarda to'lov va mol etkazib berish shartlari.
23. Xalqaro hisob - kitob shakllari.

4

**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

"Xalqaro bank va moliya" fanini o'zlashtirish jarayonida talaba:

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini tashkil etish asoslari va tamoyillarini bilishi;

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini;

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini samaradorligini aniqlash yo'llarini;

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini xalqaro sifat standartlariga moslashtirish mexanizmlarini;

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini amalga oshirishda nazorat va tartibga solish borasidagi mezon va me'yorlari ***haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;***

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini shakllantirish mexanizmidan foydalanish;

-xalqaro bank va moliya munosabatlari bilan bog'liq masalalarni tahlil etish;

-xalqaro bank va moliya munosabatlari bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf qilish usullaridan foydalanish;

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish.

-xalqaro bank va moliya munosabatlarini aniqlash haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

5

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

• ma'ruzalar;
• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
• interfaol keys-stadilar;
• blits-so'rov;
• guruhlarda ishlash;
• taqdimotlar namoyishi;
• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

6

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.



7

**Asosiy adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.Azizov va boshqalar Bank ishi Darslik Toshkent.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016. 678 b.

2. Omonov A.A., Qoraliyev T.M.. "Pul va Banklar" darslik. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2019 y. 461 b.

3. Варламова. М.А. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие / М.А. Варламова, Т.П. Варламова, И.Б. Ермакова. – М.: ИЦ РИОР, 2017. – 128 с.

4. O.Ortiqov. I.Qulliyev. "Bank menejmenti va marketingi". O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Tafakkur Bo'stoni".2015 y. 224 b.

5. Z..Mamadiyarov. M.Maxmudova. "Bank ishi". Darslik. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2021-yil. 381 b.

6. Лаврушин О.И. "Банковское дело". Учебное пособие. Москва "Кнорус" 2021-г. 358 ст.

7. Karimova A.M., Tursunov F.M. "Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari". Monografiya. Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2023-98 b.

8. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi". O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2017 y. – 628 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati:**

9. "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". PF-5992-son.12.05.2020 y.

10. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019 yil 5 noyabr O'RQ – 580-son.

11. The Business of Banking.What Every Policy Maker Needs to Know. About the American Bankers Association. of December, 2019.

12. А.И. Осипова. "Деньги, кредит, банки". Учебное пособие. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya". 2019 y. 276 b.

13. Z.D.Niyozov va boshq. "Bank etikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2022 y.- 458 b.

**Internet saytlar ro'yxati:**

15.www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari va ma'lumotlari milliy bazasi.

16.www.norma.uz – Axborot – huquqiy portal

17.www.tfi.uz – Toshkent moliya instituti rasmiy sayti

18.www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti

19.www.finance.uz – Moliya – iqtisodiy tahlil portali.

20.www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

8

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024-yil 29, avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan№ 60-14-10.